-ISLOMIY BANKLARING MOLIYAVIY BARQARORLIGI: AN'ANAVIY BANKLAR BILAN QIYOSIY TAHLIL VA O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR


Shakirova Nigora Axralovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Statistika kafedrasi PhD, dotsenti
Elektron pochta:*shakirova0130@gmail.com*
Orcid: 0009-0006-5025-4764
Mirzayev Behruzbek Bekzad o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya" fakulteti talabasi
E-mail*: mirzayevbehruzbek2008@gmail.com*
Tel: + 998 88 658 11 02

Annotatsiya: Maqolada islomiy banklarning moliyaviy barqarorligi an'anaviy banklar bilan solishtirilib baholanadi. Tadqiqot strukturalashtirilgan qiyosiy adabiyot sharhi usuliga tayanadi. Chihak va Hesse (2010), Hasan va Dridi (2010), Beck va boshq. (2013) tadqiqotlari hamda Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashi (IFSB) 2024-2025-yillardagi barqarorlik hisobotlari ma'lumotlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, islomiy banklarning barqarorligi bank hajmi, tahlil davri va mamlakat sharoitiga bog'liq: kichik islomiy banklar kichik an'anaviy banklardan barqarorroq, yirik islomiy banklar esa yirik an'anaviy banklardan kamroq barqaror bo'lgan. 2008-2009-yillardagi inqirozda islomiy banklarning yuqori kapitallashuvi va aktivlar sifati kreditlash faolligini saqlashga yordam bergan, biroq 2009-yilda ayrim banklarda foyda keskin pasaygan. Muallifning tahliliy xulosasiga ko'ra, farq foiz taqiqining o'zidan emas, ko'proq kapital zaxirasi va risklarni boshqarish sifatidan kelib chiqadi. Maqola *O'zbekistonda 2026-yil Sentabr oyida qabul qilingan Islomiy bank to'g'risiidagi* *2026-yil Avgustda oyida qabul qilingan Islomiy bank to'g'risiidagi* mart oyida qabul qilingan Islomiy bank to'g'risiidagi qonun sharoitida tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: islomiy banklar; moliyaviy barqarorlik; z-score; kapitallashuv; aktivlar sifati; foizsiz moliya; adabiyot sharhi; IFSB; O'zbekiston.

Kirish

Islomiy moliya so'nggi yillarda izchil o'smoqda. IFSB ma'lumotlariga ko'ra, global islomiy moliyaviy xizmatlar sanoati (IFSI) aktivlari 2023-yilda 3,38 trln AQSH dollariga yetgan (IFSB, 2024), islomiy banklar esa bu hajmning 70,21%ni tashkil etgan. 2024-yilda umumiy aktivlar 3,88 trln dollarga, ya'ni 14,9% ga oshgan; IFSB 2026-yil hisobotining ikkilamchi sharhiga ko'ra, 2025-yilda bu ko'rsatkich taxminan 4,4 trln dollarga yetgan. O'sish dinamikasi 1-rasmda keltirilgan. Biroq o'sish barqarorlikni kafolatlamaydi, shu sababli islomiy banklar inqirozlarga chidamliroqmi, degan savol ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo'lib qolmoqda.



:

1-rasm. Global islomiy moliyaviy xizmatlar sanoati (IFSI) jami aktivlar, 2021-2025 (trln AQSH dollari). Rasm muallif tomonidan tayyorlangan.

Muammoning mohiyati islomiy bank modelining o'ziga xosligida. Islomiy banklar foiz (ribo), haddan tashqari noaniqlik (g'arar) va qimor (maysir)ni taqiqlaydi, moliyalashtirishni esa real aktivlar yoki foyda-zararni bo'lishish asosida

amalga oshiradi. Nazariy jihatdan bu moliyaviy dastakni cheklashi va spekulyativ risklarni kamaytirishi mumkin. Biroq investitsion deposit egalari kutilgan daromadni olmasa, mablag'ni olib chiqib ketishi mumkin; shariatga muoviqlik riski va yirik banklarda kredit risklarini boshqarishdagi murakkabliklar ham yangi zaifliklar yaratadi. Shu sababli masalani nazariy mulohazalar bilan emas, bank darajasidagi dalillar asosida baholash zarur.

Islomiy banklarning barqarorligi haqidagi munozara ikki qarama-qarshi mulohazaga asoslanadi. **Birinchisi**, risk bo'lishish g'oyasi: mudoraba va mushoraka shartnomalarida bank mijoz bilan foyda va zararni bo'lishadi, deposit egalari esa kafolatlangan foiz emas, kutilayotgan daromad oladi. Bu aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi nomuofiqlikni kamaytirishi mumkin. **Ikkinchisi,** amaliyotdagi tarkib: bank balansida murobaha (ustama bilan sotish) va ijara (lizing) kabi qat'iy daromadli shartnomalar ustun bo'lsa, risk bo'lishi asosan nazariyada qoladi. Demak, islomiy bank modelining qaysi shartnomalar orqali amalga oshirilishi barqarorlik bahosiga bevosita ta'sir qiladi.

Mavzu O'zbekiston uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi, 2026-yil 27-martda Prezident islomiy bank faoliyatini joriy etuvchi qonunni (LRU-1126) imzoladi; qonun 2026-yil 28-iyunda kuchga kirishi belgilangan. U an'anaviy bank faoliyati bilan teng asosda ishlaydigan ikki tarmoqli (dual) bank tizimini joriy etadi. Markaziy bank 2030-yilgacha kamida 10 ta to'liq islomiy bank faoliyat yuritishini kutmoqda.

Tadqiqot maqsadi – islomiy va an'anaviy banklar barqarorligini qiyoslovchi mavjud empiric dalillarni baholash va ulardan O'zbekiston uchun xulosa chiqarish. Tadqiqot savollari: (1) islomiy banklar an'anaviy banklarga nisbatan barqarormi; (2) farq qaysi omillar bilan izohlanadi; (3) bu natijalar O'zbekiston sharoitiga qanchalik tadbiq etiladi. Maqolaning hissasi shundaki, turli o'lchovlar (z-score, kapitallashuv, inqiroz davridagi xulq) bo'yicha topilmalar yagona ramkada solishtiriladi va ulardagi sabab hamda korrelyatsiya masalasi alohida ajratib ko'riladi.

Metodlar

Tadqiqotlar uchta mezon bo'yicha tanlandi: (a) islomiy va an'anaviy banklarni bank darajasidagi ma'lumotlarda bevosita solishtirgan; (b) nufuzli akademik jurnalda yoki xalqaro tashkilot (IMF, Jahon banki) seriyasida chop etilgan; (v) barqarorlikni kamida bitta aniq ko'rsatkich – z-score, kapitallashuv, aktivlar sifati yoki inqiroz davridagi kreditlash – bilan o'lchagan. Ushbu mezonlarga mos uchta asosiy tadqiqot tanlandi.

Barqarorlikning asosiy o'lchovi sifatida z-score qo'llaniladi: u aktivlar rentabelligi va kapital/aktivlar nisbati yig'indisining rentabillik standart og'ishiga nisbati sifatida hisoblanadi; qiymat qancha yuqori bo'lsa, bankning to'lovga qobiliyatsizlikka yaqinlashish ehtimoli shuncha past hisoblanadi. Tahlilda qo'llanilgan ko'rsatkichlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Tahlilda qo'llanilgan barqarorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	**Mazmuni**	**Talqini**	**Ushbu maqoladagi manba**
Z-score	Aktivlar rentabelligi va kapital/aktivlar nisbati yig'indisining rentabellik standart og'ishiga nisbati	Qiymat yuqori bo'lsa, to'lovga qobiliyatsizlik ehtimoli past	Čihák va Hesse (2010)
Kapital yetarliligi koeffitsiyenti	Bank kapitalining risk bo'yicha tortilgan aktivlarga nisbati	Yuqori qiymat yo'qotishlarni qoplash zaxirasi kattaligini bildiradi	Beck va boshq. (2013); IEP (2024)

Ko‘rsatkich	Mazmuni	Talqini	Ushbu maqoladagi manba
1-darajali kapital koeffitsiyenti	Asosiy (1-daraja) kapitalning risk bo‘yicha tortilgan aktivlarga nisbati	Kapital sifatining o‘lchovi	IEP (2024)
Leverage koeffitsiyenti	Kapitalning umumiy ekspozitsiyaga nisbati	Minimal talab 3% ekanligi IEP (2025) sharhida qayd etilgan; yuqori qiymat moliyaviy dastak past ekanini bildiradi	IEP (2025)
Muammoli moliyalashtirish ulushi (NPF)	Muammoli moliyalashtirishning umumiy moliyalashtirishdagi ulushi	Past qiymat aktivlar sifati yaxshiligini bildiradi	Beck va boshq. (2013); IEP (2025)
Inqiroz davrida kreditlash va aktivlar o‘sishi	Inqiroz yillarida kredit va aktivlarning o‘sish sur’ati	Yuqori o‘sish vositachilik funksiyasi saqlanganini bildiradi	Beck va boshq. (2013); Hasan va Dridi (2010)

Umumiy sanoat ko’rsatkichlari uchun IFSB hisobotlari ishlatildi. Muhim cheklov: IFSB hisobotlarining asl to’liq matni o’qilmadi.2023-2024-yillar ko’rsatkichlari IFSB press-relizlari hamda IEP tayyorlagan ikkilamchi sharhlar

(IEP, 2024;2025), 2025-yil ko'rsatkichlariesa 2026-yil hisobotining ikkilamchi sharhi (IEP,2026) asosida keltirildi; ular asl hisobotlar bilan tekshirilishi lozim. Tahlilda manbalarda keltirilgan topilmalar (faktlar) va muallifning talqini alohida ajratib berildi.

3.Natijalar

3.1. Akademik tadqiqotlar topilmalari

Bank hajmi va z-score. Chihak va Hesse (2010) islomiy va tijorat banklarini 18ta bank tizimida solishtirgan. Mualliflar kichik islomiy banklar kichik tijorat banklariga nisbatan moliyaviy jihatdan kuchliroq, yirik tijorat banklari esa yirik islomiy banklardan kuchliroq ekanini aniqlagan; kichik islomiy banklar yirik islomiy banklardan ham barqarorroq bo'lgan. Mualliflar buni yirik islomiy banklarda kredit risklarini boshqarishdagi qiyinchiliklar aks etishi mumkinligi bilan izohlaydi. Shuningdek, islomiy banklarning bozor ulushi boshqa banklar barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan.

Kapitallashuv va aktivlar sifati. Beck va boshq.(2013) ikkala bank turi mavjud 22 mamlakatda ularni solishtirib, biznes yo'nalishida unchalik katta farq topmagan. Shu bilan birga, islomiy banklar xarajat samaradorligi bo'yicha ortda qolgan, vositachilik darajasi, aktivlar sifati va kapitallashuvi bo'yicha esa oldinda bo'lgan. Inqiroz davrida ular yaxshiroq kapitallashgan, kretid yo'qotishlari kam bo'lgan va kreditlashni kamroq qisqartirgan. Ro'yhatdan o'tgan islomiy banklar aksiyalarining nisbatan yaxshi natijasi ham yuqori kapital va aktivlar sifati bilan izohlangan.

2008-2009-yillardagi global inqiroz. Hasan va Dridi (2010) ikkala bank turli sezilarli bozor ulushiga ega mamlakatlarda 2008-2009-yillar ma'lumotlarini tahlil qilgan. Ularga ko'ra, islomiy banklarning biznes modeli 2008-yilda foydaga salbiy ta'sirni cheklagan, biroq ayrim banklarda risklarni boshqarishdagi zaifliklar 2009-yilda an'anaviy banklarga nisbatan foydaning kattaroq kamayishiga olib kelgan. Shu bilan birga, islomiy banklarning kredit va aktivlar o'sishi yaxshiroq bo'lgan, tashqi reyting agentliklari esa ularning riskini nisbatan qulayroq baholagan.

Demak, tadqiqotlar bir-birini inkor etmaydi, balki barqarorlikning turli jihatlarini yoritadi: z-score bo'yicha farq bank hajmiga bog'liq, kapitallashuv va inqiroz davridagi kreditlash bo'yicha islomiy banklar yaxshi natija ko'rsatgan, 2009-yildagi foyda bo'yicha esa ortda qolgan. Tadqiqotlarning namuna davrlari va mamlakat tarkibi asl matnlar bo'yicha alohida tekshirilmagan; ular annotatsiya darajasida tasdiqlangan ma'lumotlarga asoslanadi.

3.2. Sanoat darajasidagi ko'rsatkichlar

IFSB ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda islomiy banklarning o'rtacha kapital yetarliligi koeffitsiyenti taxminan 19,1%, 1-darjali kapital koeffitsiyenti esa 17,83% bo'lgan. 2024-yilda islomiy bank aktivlari 17,05% ga o'sgan, o'rtacha leverage koeffitsiyenti taxminan 10,7% bo'lib, 3foizlik minimal talabdan ancha yuqori turgan, muammoli moliyalashtirish ulushi esa pandemiyadan oldingi darajadan past qolgan. Bu ko'rsatkichlar islomiy banklarning me'yoriy talablarga javob berishini ko'rsatadi. Biroq ular bank darajasidagi qiyosiy dalil o'rnini bosmaydi: IFSB ma'lumotlari faqat islomiy sektorni tavsiflaydi va an'anaviy banklar bilan to'g'ridan to'g'ri solishtirishga imkon bermaydi.

2-jadval. IFSB hisobotlari bo'yicha islomiy bank sektorining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	**2023-yil (IFSB, 2024 hisoboti)**	**2024-yil (IFSB, 2025 hisoboti)**	**Manba maqomi**
Global IFSI jami aktivlari	3,38 trln AQSH dollari (o'sish ≈4%)	3,88 trln AQSH dollari (o'sish 14,9%)	Rasmiy press-reliz (IFSB, 2024; 2025); o'sish sur'ati — IEP (2024)

Ko‘rsatkich	2023-yil (IFSB, 2024 hisoboti)	2024-yil (IFSB, 2025 hisoboti)	Manba maqomi
Islomiy banklarning IFSI aktivlaridagi ulushi	70,21%	—	Ikkilamchi (IEP, 2024)
Islomiy bank aktivlarining yillik o‘sishi	7,21% (2,37 trln dollar, 4-chorak)	17,05%	Ikkilamchi (IEP, 2024; 2025)
O‘rtacha kapital yetarliligi koeffitsiyenti	≈19,10%	—	Ikkilamchi (IEP, 2024)
O‘rtacha 1-darajali kapital koeffitsiyenti	≈17,83%	—	Ikkilamchi (IEP, 2024)
O‘rtacha leverage koeffitsiyenti	Barcha mintaqalarda 3% minimaldan yuqori	≈10,7% (minimal talab 3%)	Ikkilamchi (IEP, 2024; 2025)
Muammoli moliyalashtirish (NPF) ulushi	Aksariyat mintaqalarda pasaygan	Biroz pasaygan; pandemiyadan oldingi darajadan past	Ikkilamchi (IEP, 2024; 2025)

Izoh: “—” belgisi ko’rib chiqilgan manbalarda mos qiymat keltirilmaganini bildiradi.

3.3. O’zbekiston konteksti

Qonun qabul qilinishidan oldin O’zbekistonning 12ta banki Islom taraqqiyot bankiga qarashli Xususiy sektorni rivojlantirish islomiy korporotsiyasi kredit liniyalari orqali murobaha xizmatlarini ko’rsatgan, “Trastbank”ning sho’ba

korxonasi “Trast Muamalat” esa islomiy lizing bilan shug’ullangan. Qonun loyihasiga ko’ra, Markaziy bank va tijorat banklari qoshida shariat kengashlari (islomiy moliya kengashlari) tashkil etilishi nazarda tutilgan edi. Binobarin, mamlakatda islomiy banklarning barqarorligini o’z ma’lumotlari asosida baholash uchun hozircha yetarli tarix mavjud emas.

4.Muhokama

Topilmalarning talqini. Topilmalar bir-biriga zid ko‘rinsa-da, ularni turli o‘lchovlar va davrlar bilan izohlash mumkin. Z-score yirik banklarda islomiy modelning kamchiligini, inqiroz davridagi kapital va aktivlar sifati ko‘rsatkichlari esa uning afzalligini ko‘rsatadi. Shu sababli “islomiy banklar barqarorroq” yoki “kamroq barqaror” degan umumiy xulosa dalillar bilan tasdiqlanmaydi: barqarorlik bank hajmi va tahlil qilinayotgan davrga bog‘liq. Beck va boshq. (2013) biznes yo‘nalishidagi farq kamligini ham ta’kidlaydi, ya’ni ikki model amalda yaqinlashgan bo‘lishi mumkin.

Farq mexanizmi. Farq nimadan kelib chiqishi masalasi ancha muhim. Beck va boshq. (2013) ro‘yxatdan o‘tgan islomiy banklar aksiyalarining inqiroz davridagi nisbatan yaxshi natijasini aynan yuqori kapital va past kredit yo‘qotishlari bilan bog‘laydi, ya’ni foydani bo‘lishish prinsipining o‘zi emas, kapital zaxirasi hal qiluvchi bo‘lgan. Hajm omili ham shu yo‘nalishda ishlaydi: Chihák va Hesse (2010) yirik islomiy banklardagi past z-scorelarni kredit riskini boshqarishdagi qiyinchiliklar bilan, Hasan va Dridi (2010) esa 2009-yildagi foyda pasayishini ayrim banklarda risk boshqaruvi zaifligi bilan bog‘laydi. Ikki tadqiqotning bir xil sababga ishora qilishi bu omilning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bundan muallifning tahliliy xulosasi kelib chiqadi: islomiy banklarning ustunligi, agar mavjud bo‘lsa, biznes-modelning avtomatik natijasi emas, balki kapitalni tanlash va risk madaniyatining natijasi bo‘lishi mumkin . Bu hali isbotlanmagan faraz: yuqori kapital mijozlar talabi, regulyator qarori yoki bank hajmining kichikligi kabi omillarning aks-sadosi ham bo‘lishi mumkin. Shuningdek, z-score buxgalteriya ko‘rsatkichlariga tayanadi, shu sababli foyda taqsimotini tekislashga

mo‘ljallangan zaxiralar rentabellik o‘zgaruvchanligini sun’iy kamaytirib, uni oshirishi mumkin; bu ham muallifning farazi bo‘lib, manbalar bilan tasdiqlanmagan. Tanlangan tadqiqotlarning kuchli va zaif tomonlari 3-jadvalda umumlashtirilgan.

Natijalarni ko‘chirish chegaralari. Namunalarning mamlakat tarkibi asl matnlar bo‘yicha tekshirilmagan, ikki tadqiqot esa 2010-yilgacha nashr etilgan va so‘nggi o‘n yillikni qamramaydi, shu sababli natijalarni O‘zbekistonga ko‘chirishda ehtiyot bo‘lish zarur. O‘zbekistonda bank darajasidagi mahalliy ma’lumot hozircha yetarli emas: qonun qabul qilinishidan oldin murobaha xizmatlari va islomiy lizing kabi cheklangan faoliyat mavjud edi. Bundan tashqari, sanoat aktivlarining taxminan 75 foizi GCC va Sharqiy Osiyo–Tinch okeani mintaqalarida to‘plangan. IFSB (2025) sukuk bozoridagi tarkibiy cheklovlar va murobaha-tovar kabi gibrid vositalarga tayanish moliyaviy barqarorlikka xavf tug‘dirishi mumkinligini qayd etadi, IFSB esa tijorat ko‘chmas mulki qiymatining pasayishi aktivlarga asoslangan islomiy banklar uchun alohida xavf ekanini ta’kidlaydi. Likvidlikni boshqarish vositalari kam bozorda bu xavflar yuqoriroq bo‘lishi mumkin (bu ma’lumot O‘zbekiston uchun tekshirilishi lozim); bu islomiy banklar o‘z-o‘zidan barqaror degan tasavvurga nisbatan ehtiyot bo‘lish uchun asos beradi.

O‘zbekiston uchun xulosalar. Birinchidan, tizim hozircha kichik bo‘lgani uchun Chihák va Hesse topilmasi nazariy jihatdan qulay, ammo bu faqat faraz: ularning namunasidagi kichik banklar O‘zbekistondagidan farqli institutsional sharoitda ishlagan bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, tez o‘sish yirik islomiy banklarda kuzatilgan risk boshqaruvi muammolarini keltirib chiqarishi mumkin; shuning uchun nazorat qobiliyatini o‘sishdan oldin shakllantirish muhim.

Cheklovlar. Tadqiqotning cheklovlari: o‘z hisob-kitoblarining yo‘qligi, tanlangan tadqiqotlarning cheklangan soni va 2025-yil ko‘rsatkichlarining ikkilamchi manbadan olinganligi.

5.Xulossa va tavsiyalar

Birinchi savolga javob: islomiy banklardan an’anaviy banklardan umuman barqarorroq yoki kamroq barqaror deb bo’lmaydi . Kichik banklar va inqiroz davridagi kreditlash bo’yicha islomiy banklar yaxshi natija ko’rsatgan, yirik banklar va 2009-yildagi foyda bo’yicha esa ortda qolgan. Ikkinchi savolga: farq izohida kapital zaxirasi va risklarnii boshqarish sifati foizsiz moliya tamoyilidan ko’ra kuchliroq dalillarga ega, biroq bu sababiy bog’liqlik to’liq isbotlanmagan. Uchinchi savolga: xalqaro natijalar O’zbekiston uchun yo’l-yo’riq bera oladi, lekin mamlakat ma’lumotlari bo’lmagani uchun to’g;ridan-to’g’ri bashorat sifatida ishlatilmasligi kerak.

Tavsiyalar besh yo’nalishda shakllantirildi va 3-jadvalda ularning tayanch dalillari hamda mo’ljallangan risklar bilan bog’lab ko’rsatilgan.

3-jadval. Tavsiyalar, ularning tayanch dalillari va mo’ljallangan risklar

№	Tavsiya	Tayanch dalil	Mo‘ljallangan risk
1	Islomiy oynalar va to‘liq islomiy banklar uchun alohida moliyaviy hisobot yuritish hamda IFSB ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumot yig‘ish	O‘zbekistonda bank darajasidagi mahalliy tarix yo‘qligi (3.5-bo‘lim); IFSB ko‘rsatkichlari bank turlari bo‘yicha solishtirma emasligi (3-jadval izohi)	Ma’lumot yetishmasligi; natijalarni baholay olmaslik
2	Investitsion depozitlar uchun qisqa muddatli sukuk va Markaziy bank likvidlik mexanizmlari kabi vositalarni rivojlantirish	IFSB (2025): sukuk bozoridagi tarkibiy cheklovlar; likvidlik vositalarining yetishmasligi (IEP, 2024)	Likvidlik riski; depozit egalarining mablag‘ni olib chiqishi

№	Tavsiya	Tayanch dalil	Mo‘ljallangan risk
3	Shariat kengashlari bilan bir qatorda kredit riskini boshqarish va kapital buferlariga qat’iy talab o‘rnatish	Chihák va Hesse (2010); Hasan va Dridi (2010); Beck va boshq. (2013)	Kredit riski, ayniqsa yirik banklarda; kapital yetarli bo‘lmasligi
4	Ko‘chmas mulk va boshqa real aktivlarga kontsentratsiya bo‘yicha limitlar va stress-testlar joriy etish	IFSB 2026-yil hisobotining sharhi: gibrid modellar va tijorat ko‘chmas mulkiga kontsentratsiya (IEP, 2026)	Kontsentratsiya riski; tez kredit o‘sishi
5	3–5 yildan so‘ng bank darajasidagi mahalliy ma’lumotlar asosida z-score va muammoli moliyalashtirish bo‘yicha qiyosiy empirik tadqiqot o‘tkazish	Ushbu maqolaning asosiy cheklovi — o‘z hisob-kitoblarining yo‘qligi (4-bo‘lim)	Xalqaro natijalarni O‘zbekistonga ko‘chirishdagi noaniqlik

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Merrouche, O. (2013). Islamic vs. conventional banking: Business model, efficiency and stability. *Journal of Banking & Finance, 37*(2), 433–447.https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2012.09.016

2.Čihák, M., & Hesse, H. (2010). Islamic banks and financial stability: An empirical analysis. *Journal of Financial Services Research, 38*(2), 95–113.https://doi.org/10.1007/s10693-010-0089-0

3.Hasan, M., & Dridi, J. (2010). *The effects of the global crisis on Islamic and conventional banks: A comparative study* (IMF Working Paper No. 10/201). International Monetary Fund.https://doi.org/10.5089/9781455205318.001

4.Islamic Economics Project. (2026, 8-iyun). *Key highlights of the Islamic Finance Stability Report 2026*.https://islamiceconomicsproject.com/2026/06/08/key-highlights-of-the-islamic-finance-stability-report-2026/

5.Islamic Financial Services Board. (2024, sentabr). *Islamic Financial Services Industry Stability Report 2024*.https://www.ifsb.org/wp-content/uploads/2024/09/IFSB-Stability-Report-2024-8.pdf

6.Islamic Financial Services Board. (2025, may). *Islamic Financial Services Industry Stability Report 2025: Navigating shallow waters*.https://www.ifsb.org/wp-content/uploads/2025/05/IFSI-Stability-Report-2025.pdf

7.Kinstellar. (2026, aprel). *Uzbekistan introduces a legislative framework for Islamic banking*.https://kinstellar.com/news-and-insights/detail/4227/uzbekistan-introduces-a-legislative-framework-for-islamic-banking

8.Kun.uz. (2024, 21-may). *"The bill on Islamic finance is ready" – CB deputy head*.https://kun.uz/en/news/2024/05/21/the-bill-on-islamic-finance-is-ready-cb-deputy-head

9.Kun.uz. (2025, 25-oktabr). *Central Bank sees Islamic finance as key to formalizing shadow economy*.https://kun.uz/en/news/2025/10/25/central-bank-sees-islamic-finance-as-key-to-formalizing-shadow-economy

10.Kun.uz. (2026, 30-mart). *Uzbekistan establishes legal framework for Islamic banking activities*.https://kun.uz/en/news/2026/03/30/uzbekistan-establishes-legal-framework-for-islamic-banking-activities